

JAHON IQTISODIYOTINING O'SISH SUR'ATLARINI BAHOLASH

Qodirova Xilolaxon Mamadolimovna

Magistrant, Baholash ishi va investitsiyalar kafedrası, Toshkent Moliya Instituti

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: hilolaqodirova1234@gmail.com

ORCID:0000-0002-2229-7496

ASSESSING THE GROWTH RATES OF THE WORLD ECONOMY

Kodirova Khilolakhon Mamadolimovna

Master, Department of "Assessment and investments", Tashkent Finance Institute

Tashkent, Uzbekistan. E-mail: hilolaqodirova1234@gmail.com

ORCID:0000-0002-2229-7496

JEL Classification: F2, F21, F29

Annotatsiya. Diqqatingizni jalb qilayotgan bu maqolada jahon iqtisodiyoti rivojlanishi va o'sishining zarurati, uning o'sish omillari va baholash nazariyasi, jahon iqtisodiyotining o'sishi zamirida xalqaro moliya tashkilotlarining muhim o'rin tutishi, jahon iqtisodiyotining oxirgi yillardagi o'sish sur'atlari yoritib berilgan. Mavzu doirasida jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini tasvirlash va iqtisodiy o'sishni hisoblashni nazariy asoslashga asosiy e'tibor qaratildi. Maqola tahlillalar, ma'lumotlar jadvallari va ilmiy-nazariy asoslar orqali ilmiy-informatsion shaklda tayyorlandi.

Iqtisodiy o'sish, albatta, investitsiya jarayining hajmiga va qamroviga bog'liq bo'lganligi uchun iqtisodiy, moliyaviy va soliq siyosatida investitsiya faoliyatlariga alohida ahamiyat beriladi. Binobarin, yalpi ichki mahsulot hajmini ko'paytirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish turli investitsiya faoliyatlari uchun ko'proq investitsiyalar yo'naltirishni taqozo etadi. Investitsiyalar yangi ilg'or texnologiyaga yuborilsa iqtisodiyot tez o'sadi. Yangi

texnologiyalarga investitsiyalar jalb qilib, bozorda talab bor tovarlar bilan bir qatorda an'anaviy kundalik turmush uchun zarur odatiy tovar-mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo sohasini ham innovatsion uzviylikda rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining hamma tarmoqlari holatini yuksaltirish katta ahamiyatga ega. Sababi, shunday yo'l bilan investitsiya birligiga hisoblangan iqtisodiy o'sish (yalpi ichki mahsulotning o'sishi) tezroq va samaraliroq ro'y beradi. Biroq jaxon tarixida o'chmas iz qoldirgan COVID-19 2020 yilda jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarida pasayish holatlariga olib kelib, hattoki qisqa vaqt jahon yalpi ichki mahsuloti hajmida salbiy natija qayd etildi. Bu, albatta, COVID-19 ga qarshi ko'rilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar uchun ko'p miqdorda mablag' yo'naltirilishi zarur bo'lganligi bilan izohlanadi. Iqtisodiyotlarda zarur tezkor chora-tadbirlar ko'rilganligi uchun 2021 hisobot yili ijobiy natijalar bilan yakunlanib, jahon iqtisodiyoti yalpi ichki mahsuloti 84 trln dollarni tashkil etdi. Ushbu jahon iqtisodiyotining o'sishi va u bilan bo'g'liq boshqa ko'rsatgichlar haqida maqolaning

asosiy va xulosa qismlarida turli misollar orqali tanishishingiz mumkin.

Abstract: In this article that catches your attention was illuminated the need for the development and growth of the world economy, its growth factors and assessing theory, the emergence and important role of international financial institutions on the growth of the world economy, the growth rates of the world economy in recent years. The focus is on describing the growth rates of the world economy and the theoretical basis for calculating economic growth. The article was prepared in the form of scientific information through analysis, data tables and scientific-theoretical bases.

Since economic growth, of course, depends on the size and scope of the investment process, special attention is paid to investment activities in economic, financial and tax policy. In this way, increasing the gross domestic product and achieving the strategic goals of economic development of the country will require more investment for various investment activities. The economy will grow rapidly if investments are directed to new technologies. It is important to improve the stage of all sectors of the economy by attracting investment in new technologies and developing the production, services and trade of traditional goods, as well as goods in demand in the market, in an innovative way. Because, in this way economic growth (growth of gross domestic product) per unit of investment occurs faster and more efficiently. However, COVID-19, which has left an indelible mark on world history, has led to a slowdown in the growth rate of the world economy in 2020, and even for a short time, a negative result has been recorded in world GDP. This is, of course, explained by the need to direct large sums of money for large-scale measures against COVID-19. As

a result of the necessary fast measures taken in the economies, the 2021 reporting year ended with positive results, the gross domestic product of the world economy reached 84 trillion dollars. You can get acquainted with the growth of the world economy and its indicators in the main and concluding parts of the article with various examples.

Kalit so'zlar: jahon iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyotlar, iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy o'sish omillari, jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari.

Keywords: world economy, national economies, economic growth, gross domestic product, economic growth factors, growth rates of the world economy.

Kirish. Hozirda ko'plab davlatlar va mamlakatlarda kam unumli natural ishlab chiqarish va oddiy mexanizmlarga asoslangan an'anaviy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tilganligi jahon iqtisodiyotining tezkor rivojlanishiga, turli xalqaro bozorlar va tashkilotlar shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'ldi. Jahon iqtisodiyotida ko'payib boruvchi ehtiyojlarni qondirish uchun mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarini doimo rivojlantirib borishga harakat qiladilar. Jahon iqtisodiyotini bugungi kunda 260 dan ko'p turli milliy iqtisodiyotlar tashkil qilmoqda. Bu milliy iqtisodiyotlar yaratadigan yalpi ichki mahsulot iqtisodiy o'sish sur'atini hisoblash uchun asos bo'ladi. Yillar davomida yaratilgan yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi mamlakat aholisining ko'payich darajasidan qanchalik ortib borsa, aholining daromadliligi shuncha ortib (1-jadval), mos ravishda turmush farovonligi ham oshadi. Biroq oxirgi yillarda milliy iqtisodiyotlarning ko'pi salbiy o'sish darajasini qayd etib kelmoqda. Dunyoga tez

tarqalgan COVID-2019 sababli 2020 yilda ayrim milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy o'sishda to'xtab qolib, salbiy natija ko'rsatgan va natijada o'tgan besh yildan oldingi davrlarga nisbatan kam bo'lgan jahon iqtisodiy inqirozi kuzatildi, ya'ni jahon iqtisodiyoti sezilarli pasayib, 3.4 % salbiy ko'rsatgich yuzaga keldi (5-jadval). Shunday bo'lsada, 2021 yildan jahon iqtisodiy o'sish sur'atlari yaxshi natija namoyon eta boshladi va jahon iqtisodiyotining yalpi ichki mahsuloti 5.9% ga o'sdi.

Material va metod. Jahon iqtisodiyoti dunyo mamlakatlarining o'zaro hamkorligi asosida ro'y beruvchi jarayon bo'lganligi uchun u ko'p tarafdin o'rganiladi va tadqiqiy tahlillar asosida baholanuvchi natijalarga erishiladi. Bu to'g'risida yillar davomida juda ko'plab o'z davrining taniqli namoyondalari muhim fikrlarni bildirishgan, iqtisodiy o'sish yo'llarini ishlab chiqib, amalda tadbir qilinishi uchun faol harakatlar qilishgan. Shularni inobatga olib bu mavzu bo'yicha materiallarni yoritib berish quyidagi manbaalarga muvofiq keltirib o'tildi va bu manbaalar jahon iqtisodiyoti bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchilar uchun tavsiya qilinadi:

- Qadimgi Bobildan to hozirgacha turli iqtisodiy g'oya, nazariya va ta'limotlarni jamlagan Sh. H. Tashmanov, X. S. Asatullayev, Z. G. Allaberganovlarning Iqtisodiy ta'limotlar tarixi kitobidan jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy g'oyalar to'g'risida muhim fikrlar va manbalarni topish mumkin;

- Jahon iqtisodiyoti rivojida zaruriy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliya munosabatlari, jahon iqtisodiyotining globalashuvi, xalqaro moliya tizimi rivojlanib borishi va jahon moliyaviy

tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari J. X. Ataniyazovning Xalqaro moliya munosabatlari va J. X. Ataniyazov, F. A. Xamidova, M. B. Pulatovalarning Xalqaro moliya institutlari kitoblarida o'z aksini topgan;

- Jahon iqtisodiy o'sishining birlamchi ko'rsatgichi bo'lgan yalpi ichki mahsulotning yaratilishi, uni hisoblash va yillar davomida o'sish sur'atlarini o'rganish jahon iqtisodiy o'sish sur'atlarini tushunish uchun asos bo'ladi. Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiyotning ochiqligi va ijtimoiyligi to'g'risidagi dastlabki bilimlarni boyitish va mustahkamlash uchun A. O'lmasov, A. Vahobovlarning Iqtisodiyot nazariyasi kitobi samarali foydalanish manbaidir;

- Iqtisodiy adabiyotlar orqali ilmiy material va metodlarni o'rganib, ilmiy-nazariy bilimlarimizni boyitishimiz mumkin bo'lsa, internet ma'lumotlari orqali kerakli ma'lumotlarga tezroq yetishib nazariy-tahliliy fikrlarni rivojlantirish mumkin bo'ladi. Jumladan, Birlashgan millatlar tashkiloti va Jahon bankining internet saytlaridan, ma'lumotlari bazasidan, hisobotlaridan va boshqa iqtisodiy ma'lumotlarni jamlagan internet tarmoqlaridan jahon iqtisodiyoti to'g'risida, uning milliy iqtisodiyotlar va mintaqaviy iqtisodiyotlar shaklida rivojlanishini kuzatish va iqtisodiy-tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Natijalar. Jahon iqtisodiyotining o'sishi milliy iqtisodiyotlarning iqtisodiy o'sishlarini yillar davomida hisobga olib borish natijasida umumlashtiruvchi ko'rsatgich sifatida yuzaga keladi. Jahon iqtisodiyoti o'sishining hisobini yuritish asosan ikkinchi jahon urushidan keyin ko'rilgan zararlarni qoplash uchun to'lovlarni tartibga solish maqsadida tashkil


etilgan bo'lsada, keyinchalik bu faoliyat dunyo mamlakatlari aholisining ko'payib borishi va yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi sababli turli investitsiyalarni amalga oshirish va milliy iqtisodiyotlardagi iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlash uchun davom ettirildi. Bu borada xalqaro tashkilotlarning o'rni katta ahamiyatga ega. Birlashgan Millatlar Tashkiloti – BMT, Jahon Banki – JB, Xalqaro Valyuta Fondi – XVF tomonidan har bir mamlakatdan belgilangan vakillar hamkorligida Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini baholash doirasidagi har bir milliy iqtisodiyotning ko'p tomonlama tahlillari qilinadi. Jahon iqtisodiyotining iqtisodiy o'sish sur'atlari asosan milliy iqtisodiyotlarning YaIM ko'rsatgichlariga asosan belgilanadi.

Tabiiyki ko'plab mamlakatlar dunyodagi eng rivojlangan davlatlarning ilg'or iqtisodiy natijalaridan andoza olishga va uni iqtisodiy imkinoyatlari doirasida amalga oshirish uchun harakat qiladilar. Natijada bir nechta iqtisodiyotlarning bir xil vaqt davomida bir biriga yaqin natijalarga erishishi yuz beradi. Bu, albatta, ijobiy holat bo'lib, jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini ijobiy o'zgartiradi va aholining yangi ehtiyojlarini qondiradi. 2021 yilgacha bo'lgan jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari dunyo aholisining ikkinchi jahon urushidan keyin tez ko'payganligini, xususan 1960 yildan boshlab qisqa vaqtda 3 mlrd kishidan 8 mlrd kishigacha oshganligi, jahon YaIM-i 84 trln dollarga yetganligini ko'rsatadi (1-jadval va 1-rasm).

1-jadval

1960-2020 yillarda Jahon YaIM va aholining o'sish ko'rsatgichlari.¹

Yil	Jahon YaIM, trln dollar	Jon boshiga jahon YaIM, ming dollar	Jahon YaIM-ining mutlaq o'sishi, trln dollar	Jahon YaIM-ining nisbiy o'sishi, %	Dunyo aholisi soni, mlrd kishi	Dunyo aholisi o'simi, %
1960	1.139	0.376	bazis yil	bazis yil	3.026	bazis yil
1970	2.770	0.750	1.6	140	3.691	18
1980	10.670	2.398	7.9	285	4.449	17
1990	22.435	4.215	11.8	111	5.321	16
2000	33.446	5.458	11	49	6.128	13
2010	65.982	9.540	32.5	97	6.917	11
2020	83.597	10.725	17.6	27	7.795	11



1-rasm. Jahon YaIM-ning 1960-2020 yillarda 1 trln dollardan 84 trln dollarga va dunyo aholisining 8 mlrd kishigacha o'sish grafiklari.²

¹ Muallifning ilmiy ishlanmasi

² Muallifning ilmiy ishlanmasi


Milliy iqtisodiyotlarning o'sish sur'atlari bir-biridan turlicha farqlanadi. Misol uchun, 2020 yilda YaIM-i 59.930 mlrd dollarni tashkil qilgan O'zbekiston (5-jadval) bilan dunyoning eng ko'p aholisi yashayotgan Xitoy yoki rivojlangan davlatlar AQSh, Yaponiya o'rtasidagi farq katta miqdorni tashkil etadi. Shuning uchun milliy iqtisodiyotlar mintaqa bo'yicha, YaIM bo'yicha, rivojlanish darajasiga ko'ra va boshqa mezonlar asosida guruhlanib o'rganiladi. Belgilangan mezon doirasida guruhlangan iqtisodiyotlar vaqt va zahira resurslar omillari ta'sirida quyi o'rinlarga tushib qolishi yoki aksincha yuqorilab

ketishi mumkin. 1990 yilda YaIM-i eng ko'p davlatlar beshligiga AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiya iqtisodiyotlari kirgan bo'lsa, 2020 yilda bu guruhga AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya iqtisodiyotlari mansub bo'lgan (2-jadval). Rivojlangan iqtisodiyotlar guruhi beshligi – RIG5 2020 yilda 47 trln dollardan ko'proq YaIM-ga ega bo'lib, 84 trln-lik jahon YaIM-ning 56% ni tashkil qildi (2-rasm) hamda qolgan milliy iqtisodiyotlar – MI ga nisbatan rivojlanishning va aholi daromadlarining yuqori ko'rsatkichlariga erishdi.

2-jadval

1990, 2000, 2010 va 2020 yillarda jahon YaIM-ining yirik iqtisodiyotlardagi miqdori.³

1990 yil		2000 yil		2010 yil		2020 yil	
MI	YaIM, trln doll.	MI	YaIM, trln doll.	MI	YaIM, trln doll.	MI	YaIM, trln doll.
Jahon	22.435	Jahon	33.446	Jahon	65.982	Jahon	83.597
Shundan: AQSh	5.963	Shundan: AQSh	10.252	Shundan: AQSh	14.992	Shundan: AQSh	20.953
Yaponiya	3.133	Yaponiya	4.968	Xitoy	6.087	Xitoy	14.723
Germaniya	1.772	Germaniya	1.943	Yaponiya	5.759	Yaponiya	5.058
Fransiya	1.269	Buyuk Britaniya	1.662	Germaniya	3.396	Germaniya	3.846
Italiya	1.181	Fransiya	1.362	Fransiya	2.643	Buyuk Britaniya	2.760
Qolgan MI	9.117	Qolgan MI	13.259	Qolgan MI	33.105	Qolgan MI	36.257



2-rasm. 2020 yilda jahon YaIM-da RIG5 ning salmog'i.

³ Muallifning ilmiy ishlanmasi

Iqtisodiyotda nisbiy iqtisodiy o'sish degan nazariya borki, unga asosan katta miqdordagi YaIM-ga ega bo'lmagan davlatlar dunyo mamlakatlari ichida eng yuqori darajani ko'rsatishi mumkin. 1961-2020 yillarda iqtisodiyotlar erishgan jami nisbiy iqtisodiy o'sish bo'yicha turli darajada rivojlanishga erishgan milliy iqtisodiyotlar eng yuqori ko'rsatgichlarni qayd etgan (3-jadval). 2020 yil yakunlariga ko'ra, 1961-2020 yillardagi 60 yillik YaIM-ning jami nisbiy o'simi bo'yicha Iroq 1541% va Ekvatorial Gvineya 1252% bilan

eng yuqori iqtisodiy o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Garchi bu yillarda RIG5 ga mansub iqtisodiyotlarning jami mutlaq iqtisodiy o'simi eng yuqori miqdorlarni tashkil qilgan bo'lsa ham, nisbiy iqtisodiy o'sish nazariyasi bo'yicha rivojlangan beshlikka kirgan davlatlarning ko'rsatgichlari boshqa iqtisodiyotlarning nisbiy iqtisodiy o'simiga nisbatan kam bo'lib: 1961-2020 yillarda AQSh 388,74%, Yaponiya 529,57%, Xitoy 621,08%, Germaniya 332,87% va Buyuk Britaniya 403,52% jami nisbiy iqtisodiy o'simga ega bo'lgan.

3-jadval

1961-2020 yillarda 215 ta mamlakat ichida eng yuqori va turli nisbiy iqtisodiy o'simga ega bo'lgan iqtisodiyotlar.⁴

No	Iqtisodiyotlar	1961-2020 yillarda iqtisodiyotlar erishgan 60 yillik jami mutlaq iqtisodiy o'sishlar miqdori, dollar	1961-2020 yillarda iqtisodiyotlar erishgan 60 yillik jami nisbiy iqtisodiy o'sishlar foizi, %
Eng yuqori nisbiy iqtisodiy o'simga ega bo'lgan iqtisodiyotlar:			
1	Iroq	208 955 065 385.30	1 540.80
2	Ekvatorial Gvineya	10 969 740 168.99	1 252.32
3	Oman	84 852 857 874.49	953.84
4	Qatar	165 280 843 087.44	813.36
5	Koreya Respublikasi	1 740 307 246 208.78	719.52
Turli nisbiy iqtisodiy o'simga ega bo'lgan iqtisodiyotlar:			
1	Saudiya Arabistoni	762 812 785 923.91	676.54
2	Xitoy	16 256 645 726 177.10	621.08
3	Malayziya	376 569 136 230.61	598.36
4	Yaponiya	5 035 035 054 015.92	529.57
5	Benin	16 962 760 544.41	499.98
6	Buyuk Britaniya	2 862 628 063 187.85	403.52
7	Kiribati	195 296 656.74	394.18
8	AQSh	21 615 359 751 000.00	388.74
9	Germaniya	3 900 294 517 910.21	332.87
10	Kabo-Verde	1 760 798 523.92	299.47
11	Libya	11 241 724 938.20	198.62
12	O'zbekiston	37 121 163 705.63	174.67
13	Shanel orollari	5 568 928 465.72	70.36

⁴ Muallifning ilmiy ishlanmasi

14	Sint Maarten (Dutch part)	243 240 223.46	25.55
15	Shimoliy Mariana orollari	-360 000 000.00	-10.93
16	Kurakao	-431 579 967.16	-13.84

Jahon iqtisodiyoti hisobotlarini, dollar qat'iy belgilangan birlik bo'lmaganligi sababli, JB har yili, XVF esa ikki yilda bir marotaba jahon mamlakatlarining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatgichlarini o'tgan yillar uchun qayta hisoblab chiqib tayyorlaydi. Biroq bu hisobotlarda har doim ham hamma mamlakatlar ko'rsatilmasligi mumkin.

Bunday ko'rsatgich va hisobotlar tarkibiga O'zbekiston iqtisodiyoti ham 1990 yildan boshlab kiritilgan. Jahon banking 08.04.2022 sanada yangilangan ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston 2020 yilda 60 mlrd dollardan iborat bo'lgan YaIM yaratgan (4-jadval).

Yil	Jahon YaIM, trln dollar	O'zbekiston YaIM, mlrd dollar	Jahon YaIM-ida O'zbekiston YaIM-ining ulushi, %	O'zbekiston YaIM-ining mutlaq o'simi, mlrd dollar	O'zbekiston YaIM-ining nisbiy o'simi, %
1990	22.435	13.360	0.06	bazis yil	bazis yil
1995	30.719	13.351	0.06	-0.009	-0.07
2000	33.446	13.761	0.06	0.410	3.07
2005	47.359	14.308	0.06	0.547	3.98
2010	65.982	49.766	0.22	35.458	247.82
2015	74.255	86.196	0.38	36.430	73.20
2020	83.597	59.930	0.26	-26.266	-30.47

Jahon iqtisodiy o'sishining sur'atini mintaqalar bo'yicha kuzatadigan bo'lsak (5-jadval), 2021 yil yakunlari bo'yicha Osiyo mintaqasi eng yuqori YaIM hajmiga erishgan. Pandemiya davridan ham Osiyo mintaqasi eng kam zarar bilan chiqib, YaIM

Munozara. Milliy iqtisodiyotda erishilgan YaIM iqtisodiyotning haqiqiy holatini qanchalik ko'rsatib berayotgani muhim ahamiyatga ega. Shu sababli nominal YaIM va real YaIM farqlanadi. Nominal YaIM tovar va xizmatlarning joriy narxlarda hisoblangan bozor qiymati bo'lsa, real YaIM bazis narxda yoki o'zgarmas narxda hisoblangan YaIM-dir. Makroiqtisodiy

o'simi 1.1 % salbiy natijani ko'rsatgan. Jami jahon iqtisodiy o'sishining sur'ati pandemiya sabab 2020 yilda 3.4 % zararni ko'rsatgan bo'lsa, so'nggi yilda dunyo davlatlari iqtisodiyotida yana oldinga siljish kuzatilib, jami jahon YaIM-i 5.9 % o'sgan.

vaziyatga baho berilganda narxlar o'zgarishini e'tiborga olib real YaIM-ni aniqlash va dinamikasiga qarab uning holatini aniqlash kerak bo'ladi.

Jahon iqtisodiyotida ehtiyojlar uzluksiz qondirilishi uchun iqtisodiyot doimo o'sib borishi talab qilinadi, chunki shu yo'l bilangina iste'mol uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar ko'plab va xilma-

xil yaratiladi hamda yangi ish joylari tashkil qilinadi. Iqtisodiy o'sish orqali jahon iqtisodiyoti rivojlanib boradi. Demak, iqtisodiy o'sish deganda – iqtisodiyotning rivojlanishi, ya'ni hayotimiz uchun zarur ne'matlar bo'lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning ko'payib borishi tushuniladi. Iqtisodiy o'sish mutlaq va nisbiy bo'ladi.

Mutlaq iqtisodiy o'sish tovar va xizmatlar qanday miqdorda ko'payganini bildiradi. Buni (O'_m) aniqlash uchun real YaIM-ning hozirgi hajmidan (M_2) oldingi hajmi (M_1) chegirib tashlanadi:

$$O'_m = M_2 - M_1$$

Mutlaq o'sish iqtisodiy salohiyatning katta yoki kichikligini bildiradi. Shunga mos ravishda qaysi mamlakatning mutlaq o'sish hajmi katta bo'lsa, shu mamlakatning iqtisodiy qudrati ulkan hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati uning real YaIM bilan birga aholi soni, yer maydoni va tabiiy boyliklariga hamda bu resurslardan qanchalik foydalanishga erishganiga ham bo'g'liq bo'ladi.

Nisbiy iqtisodiy o'sish YaIM yaratilishining jadallik sur'atini bildiradi va foizda ifodalanadi. Uni (O'_n) aniqlash uchun hozirgi real YaIM hajmining o'sishi dastlabki mahsulot hajmi bilan taqqoslanadi:

$$O'_n = (M_2 - M_1) / M_1 * 100$$

Iqtisodiy o'sishda aholi soni ham muhim rol o'ynaydi. Hozirda 242 ta iqtisodiy hududda aholi soni hisobga olib borilmoqda. Eng aholisi ko'p iqtisodiy hudud Xitoyning bugungi kunda aholi soni 1,367,820,000.kishidan iborat bo'layotgan bo'lsa, eng aholisi kam iqtisodiy hudud Pitkon Orollari bo'lib, uning aholi soni 2008 yilda 66 kishidan iborat bo'lgan.

Jon boshiga hisoblangan real YaIM (M_a) bu iqtisodiyot ehtiyojini qondirishga naqadar qodir ekanligini bildiradi. Buni aniqlash uchun YaIM hajmi (M) aholi soniga (A) bo'linadi, ya'ni bir kishiga YaIM-ning qanchasi to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi:

$$M_a = M / A$$

YaIM jon boshiga ortib borishi uchun ishlab chiqarish aholi soniga nisbatan tezroq o'sib borishi zarur. Xususan, mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsion va miqdoran ko'paytirish orqali YaIM-ning ko'payishi bilan birga yangi ish o'rinlari ham ortib boradi.

Demak, iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning rivojlanishi bo'lar ekan. Boriq, hozirgi vaqtda iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarga ham e'tibor berish kerak bo'ladi. Bular quyidagi omillardir:

1. Ishlab chiqarishdagi moddiy kapital. Mashina-uskunalar qanchalik mukammal bo'lsa, shuncha ko'p tovar va xizmatlar yaratiladi.

2. Inson kapitalining sifat darajasi. Ishlovchilarning bilim darajasi, ishlash mahorati, tajribasi, mehnat saviyasi bo'lmasa mukammal texnika ham natija bermaydi. Shu ma'noda inson kapitalining sifat darajasi muhimdir.

3. Ishlab chiqarishning texnologik usullari. Muayyan bozor sharoitida yangi texnologik usullar bilan tovar va xizmatlar yaratilishi kerak va ular o'z vaqtida bozorga yetkazilishi ham muhim hisoblanadi. Misol uchun malum vaqt davomida 50 ta mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi mashina-uskuna o'rniga shu vaqt davomida 100 ta mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi mashina-uskuna

o'rnatilishi mumkin. Texnologik yangilanish qanchalik tez borsa, boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan taqdirda ishlab chiqarish shunchalik tez o'sadi, mehnat unumdorligi yuksalib, vaqt birligida yaratilgan tovar va xizmatlar ko'payadi. Bundan ko'rinadiki, texnologik yangilanish milliy iqtisodiyot darajasiga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi.

4. Investitsiyalar miqdori va tarkibi. Investitsiya omili iqtisodiy o'sishning asosiy tayanchidir, chunki investitsiyalar amalga oshirilmasa, o'sish ham bo'lmaydi. Iqtisodiyotning o'sishi ko'plab turli xil investitsiyalarni amalga oshirish bilan bo'ladi. Bular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish yoki yangilarini tashkil etish uchun zarur moddiy va pul mablag'laridir. Investitsiya kapitalni jamg'arishdan boshlanadi va bu makroiqtisodiy darajada YaIM-ning muayyan qismini qaytadan ishlab chiqarishga joylashtirganda yuz beradi.

Investitsiyaning YaIM-dagi hissasi investitsiya normasi deb aytiladi. Agar YaIM 560 mlrd dollarga yetib, shundan investitsiya miqdori 112 mlrd dollar bo'lsa, investitsiya normasi 20 % ga teng bo'ladi:

$$Y_n = (Y / M) * 100$$

$$Y_n = (112 / 560) * 100 = 20 \%$$

Iqtisodiyotda investitsiya multiplikatori degan tushuncha bor, bunga ko'ra, qo'yilgan investitsiya miqdorining o'sishiga nisbatan YaIM-ning miqdori tezroq o'sadi, ya'ni amalga oshirilgan investitsiyalar natijasida YaIM-ning miqdori jamg'arilgan investitsiya kapitali hajmiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Multiplikator investitsiya o'simiga (ΔY) nisbatan YaIM qanday o'sganligini (ΔM) bildiradi:

$$\text{Multi} = (\Delta M / \Delta Y) * 100$$

Investitsiyalar novatsiyaga, yangi texnologiyaga yuborilsa, iqtisodiyot tez o'sadi, chunki bular bozorda talab bor tovarlarni yangi yuksak unumli texnologiyaga tayanib ishlab chiqarilishini bildiradi. Shundagina multiplikatsiya samarasi ortib boradi, ya'ni investitsiya birligiga hisoblangan iqtisodiy o'sish (YaIM o'sishi) tezroq ro'y beradi. Yuksak unumli texnologiya bo'lishi mumkin: belgilangan vaqt yoki qisqaroq vaqt davomida oldingi davrlardan ko'ra ko'proq va/yoki sifatliroq mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi mashina-uskuna; sifatli ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga yordam beruvchi innovatsion qurilma; sifatli ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni yangi shaklda tashkil etish uchun yangi texnologik usul-reja va unga asoslangan harakatlar majmui; va boshqa.

Investitsiya barcha ishlab chiqarish omillarini bir-biriga bo'g'liq holda takomillashtirgan taqdirda jadal iqtisodiy o'sish yuz beradi. Bitta investitsiya loyihasi misolida olinganda uning jadal iqtisodiy o'sishi uchun ushbu investitsiya loyihasining Biznes rejasi yoki Texnik iqtisodiy asosnomasi to'liq va mukammal ishlab chiqilgan bo'lishi va shu hujjatlarga qat'iy rioya qilingan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tashkil qilingan bo'lishi zarur.

Biroq, shuni e'tiborga olish kerakki, iqtisodiy o'sish darajasi iqtisodiyot hajmiga teskari mutanosiblikda bo'ladi. Misol uchun quyidagi ikki xil investitsiya loyihasini ko'rib chiqamiz:

- a) Agar mahsulot miqdori (Q) 120 ta bo'lgan holda investitsiya qilinib, yangidan 12 ta mahsulot yaratilsa,

iqtisodiy o'sish 10 % ($12/120 \cdot 100$) bo'ladi.

- b) Agar mahsulot miqdori (Q) 6000 ta bo'lgan holda investitsiya orqali yangidan 180 ta mahsulot yaratilsa, iqtisodiy o'sish 3 % ($180/6000 \cdot 100$) bo'ladi.

Bu ikki holatda ko'rinmoqdaki, ishlab chiqarish hajmi (mamlakat miqyosida ko'rilganda YaIM hajmi) $120 < 6000$ bo'lgani holda, hisoblab chiqilgan iqtisodiy o'sishlarni nisbat olganimizda $10 \% > 3 \%$ kelib chiqmoqda. Bu esa investitsiyalar yetarli bo'lganda iqtisodiyot darajasi nisbatan past mamlakatlar iqtisodiyot darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga qaraganda jadalroq rivojlanish ro'y berishini bildiradi. Lekin investitsiyani moddiy kapitalga yuborish bilan checklanib bo'lmaydi, sababi iqtisodiy o'sish uchun inson kapitali ham takomillashib borishi kerak.

5. Ta'lim darajasi. Iqtisodiy o'sish yuz berishi uchun moddiy va inson kapitalining mukammalligi bir-biriga mos bo'lishi talab qilinadi. 2-omilda ta'kidlanganidek ishlab chiqarishning texnologik darajasiga ish kuchining sifati mos tushishi kerak. Shuning uchun ta'lim darajasini ko'tarib turish iqtisodiy o'sish omiliga aylandi. Ta'lim darajasi kishilarning bilim olish vaqti nechog'lik uzun bo'lishiga va olingan bilim chuqur bo'lishiga bog'liq. Ilg'or mamlakatlarda mehnat unumdorligi o'sishini texnologik yangiliklar beradi. Yangiliklar ommalashgan sari iqtisodiy o'sish tezlashadi. Masalan, Koreya Respublikasidagi texnologik yangiliklarning ko'pchiligini AQSh va Yaponiyada o'qib kelgan olimlar va mutaxassislar yaratgan ekan, ular mamlakatda texnologik

yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etib, jadal iqtisodiy o'sishga erishishgan.

6. Iqtisodiy erkinlik darajasi. Erkinlikning poydevorini xususiy mulk tashkil etadi. Shu bois, mulkning daxlsizligini, uning o'z egasi manfaati yo'lida ishlatilishini qonunchilik asosida ta'minlash iqtisodiy o'sishning shartidir.

7. Iqtisodiyotning ochiqligi. Bu milliy iqtisodiyotni o'zgaralar uchun ochiq bo'lishidir. Milliy iqtisodiyot muayyan mamlakat ichida yuz beradigan iqtisodiy faoliyatdan iborat bolsa, ochiq iqtisodiyotda tashqaridan resurslarning erkin kirib kelishi, eksport va importning kengayib borishi ro'y beradi, chet el kapitali ishlab chiqarishning kerakli sohalariga yuborilib ular rivojini tezlashtiradi. Ochiq iqtisodiyot tashqi savdoning afzalligidan foydalanishga sharoit yaratadi. Biroq buning uchun transport kommunikatsiyasi rivojlangan bo'lishi kerak, shu sababi suv yo'li bilan jahon bozoriga chiqa oladigan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga erishish nisbatan yengil bo'ladi.

8. Xalqaro bozordagi holat. Bu tashqi bozor konyukturasi bo'lib, bu yerda narxlarni pasayib va o'sib turishi exporti katta mamlakatlardagi iqtisodiy o'sishga ta'sir etadi. Eksport tovarlari narxi oshsa YaIM hajmi ortadi va aksincha ular pasaysa YaIM hajmi ham qisqaradi. Masalan, 2003-2005 yillarda jahon bozorida neft narxining shiddat bilan o'sishi uni eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shgan.

9. Demografik vaziyat. Agar aholi 2% o'sib, ishlab chiqarish 5% o'ssa jon boshiga YaIM 3% ortadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini baholash milliy iqtisodiyotlar bo'yicha, ya'ni mamlakatlar miqyosida iqtisodiy o'sish ko'rsatgichlari aniqlanib tahlillar qilish orqali amalga oshiriladi. Provardida har bir mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga baho beriladi va istiqboldagi choratadbirlarni belgilash uchun asos qilib olinadi. Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini baholash borasida BMT-ning va xalqaro moliya institutlari JB-ning, XVF-ning xizmatlari mavjud bo'lib, BMT tomonidan xalqaro iqtisodiy rivojlanish rejalari belgilanadi, JB har yili, XVF esa ikki yilda bir marotaba milliy iqtisodiyotlarning ko'rsatgichlarini o'tgan yillar uchun qayta hisoblab chiqadi. Bunda asosiy maqsadlardan biri xalqaro valyutaviy jang'armalarni maqsadli taqsimlash va shu yo'l bilan qabul qiluvchi milliy iqtisodiyotlar iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Oxirgi yillarda kutilmagan holatlar natijasida jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarida keskin o'zgarish ro'y berdi. 2019 yildan boshlab dunyoga tez tarqalgan COVID-2019 jahon iqtisodiy o'sish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, ayrim milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy o'sishdan to'xtadi va jahon iqtisodiy inqirozi kuzatildi. Biroq bu galgi iqtisodiy tanglik 2015 yilgidan ikki baravar kam bo'lganligi yaxshi natijadir. O'shanda jahon iqtisodiy o'sish sur'ati 6.08% salbiy holatni tashkil qilgan va 2017 yildan jahon iqtisodiy o'sishining yana ijobiy sur'ati boshlangan edi. Bu galgi kutilmagan holatdan milliy iqtisodiyotlar belgilangan tibbiy choralarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo ishlarini davom ettirdilar va qaltis vaziyatdan tezroq chiqishga erishdilar, jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlarida esa oxirgi 2021 yilda ijobiy natija qayd etildi (5-jadval).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ataniyazov J. X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2020. 612b.
2. Ataniyazov J. X., Xamidova F. A., Pulatova M. B. Xalqaro moliya institutlari. O'quv qo'llanma. Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2020. 156b.
3. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2014. 424b.
4. Tashmatov Sh. H., Asatullayev X. S., Allaberganov Z. G. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2019. 352b.
5. "World Economic Situation Prospects 2022" (Jahon iqtisodiy vaziyati istiqbollari 2022). Iqtisodiy va Ijtimoiy Ishlar bo'yicha Birlashgan Millatlar Departamenti bayonoti. Nyu York, 2022. 232b.
6. data.worldbank.org THE WORLD BANK Data//GDP growth (annual %)
7. economic-definition.com //internet ma'lumotlari
8. ru.m.wikipedia.org Vikipediya//Список стран по темпам роста ВВП
9. uz.m.wikipedia.org Vikipediya// internet ma'lumotlari
10. vseмирnyjbank.org Gruppa Vseмирного Банка//internet ma'lumotlari